



ANTHROPOLOGICAL FEATURES OF RADICALIZATION AND TERRORISM: DIALECTIC ANALYSIS

Jakhongir Boybutayev

PhD, Associate Professor

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: radicalization, terrorism, anthropology of terrorism, identity, group affiliation, extremism, dialectical analysis, spiritual transformation, crisis of values.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: The article analyzes the anthropological features of radicalization and terrorism based on a dialectical approach. The role of factors such as the socio-psychological and spiritual transformations occurring in human consciousness during radicalization, feelings of injustice, identity crisis, group belonging needs, and ideological influence in the formation of terrorism is revealed. The article also substantiates that terrorism is not only a political problem or a security issue, but also a complex anthropological phenomenon related to human self-awareness, value transformation, and the subjective perception of social reality.

RADIKALLASHUV VA TERRORIZMNING ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLARI: DIALEKTIK TAHLIL

Jahongir Boybutayev

PhD, dotsent

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: radikallashuv, terrorizm, terrorizm antropologiyasi, identiklik, guruhviy mansublik, ekstremizm, dialektik tahlil, ma'naviy transformatsiya, qadriyatlar inqirozi.

Annotatsiya: Maqolada radikallashuv va terrorizmning antropologik xususiyatlari dialektik yondashuv asosida tahlil qilingan. Radikallashuv jarayonining inson ongida kechadigan ijtimoiy-psixologik va ma'naviy transformatsiyalari, adolatsizlik hissi, identiklik inqirozi, guruhviy mansublik ehtiyoji

va mafkuraviy ta'sir kabi omillarning terrorizm shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada terrorizm faqat siyosiy yoki xavfsizlik muammosi emas, balki insonning o'zligini anglashi, qadriyatlar transformatsiyasi va ijtimoiy voqelikni subyektiv qabul qilishi bilan bog'liq murakkab antropologik fenomen ekanligi asoslangan.

АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАДИКАЛИЗАЦИИ И ТЕРРОРИЗМА: ДИАЛЕКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Жахонгир Бойбутаев

PhD, доцент

Академии МВД Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: радикализация, терроризм, антропология терроризма, идентичность, групповая принадлежность, экстремизм, диалектический анализ, духовная трансформация, кризис ценностей.

Аннотация: В статье на основе диалектического подхода анализируются антропологические особенности радикализации и терроризма. Раскрывается роль таких факторов в формировании терроризма, как социально-психологические и духовные трансформации, происходящие в сознании человека в процессе радикализации, чувство несправедливости, кризис идентичности, потребность в групповой принадлежности и идеологическое воздействие. Также в статье обосновывается, что терроризм является не только политической проблемой или вопросом безопасности, но и сложным антропологическим феноменом, связанным с самосознанием человека, трансформацией ценностей и субъективным восприятием социальной действительности.

Kirish. Nega ayrim insonlar o'z hayotini saqlab qolish o'rniga muayyan g'oya yo'lida o'zini qurbon qilishni tanlaydi? Nima uchun oddiy inson ma'lum bir bosqichda zo'ravonlikni adolat va haqiqatni qaror toptirish vositasi sifatida qabul qila boshlaydi? Ushbu savollar zamonaviy terrorizm antropologiyasining markaziy muammolaridan birini tashkil etadi.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, zo'ravonlik faqat siyosiy yoki harbiy hodisa emas, balki inson tabiatining murakkab ijtimoiy va ma'naviy qirralari bilan bog'liq fenomen

hisoblanadi. Turli davrlarda zo‘ravonlik turli shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, XXI asrda terrorizm uning eng murakkab va xavfli ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Terrorizmning o‘ziga xosligi shundaki, u muayyan siyosiy maqsadlarga erishish vositasi bo‘lish bilan birga insonning o‘zligi, identikligi, qadriyatlari va jamoaviy mansublik hissi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy terrorizmni tahlil qilishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarda uning siyosiy, iqtisodiy, diniy va psixologik omillari keng o‘rganilgan. Biroq terrorizmning inson tabiati bilan bog‘liq antropologik xususiyatlari, radikallashuv jarayonida shaxs ongida kechadigan o‘zgarishlar hamda “Men”ning “Biz”ga aylanish mexanizmi hanuz dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, insonning o‘zini jabrlangan sifatida anglashi va guruhiiy identiklikning kuchayishi kabi omillar terrorizm fenomenini antropologik nuqtai nazardan tadqiq etish zaruratini oshirmoqda.

Muhokama va natijalar. Radikallashuv va terrorizm o‘rtasidagi munosabat ham dialektik xususiyatga ega. Chunki terrorizm tayyor holatda paydo bo‘lmaydi, balki shaxsning ijtimoiy voqelikni qabul qilishi, o‘zini muayyan guruh bilan identifikatsiya qilishi va zo‘ravonlikni legitim vosita sifatida qabul qilishi orqali shakllanadi. Shu ma’noda radikallashuv terrorizmning ijtimoiy-psixologik zamini bo‘lsa, terrorizm mazkur jarayonning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Eronlik sotsiolog Farxad Xosroxavar fikricha “Radikallashuv deganda, shaxs yoki guruhning siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy jihatdan o‘rnatilgan tartibga qarshi bo‘lgan, siyosiy, ijtimoiy yoki diniy mazmundagi ekstremistik mafkura bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan zo‘ravonlik harakatini amalga oshirish jarayoni deyiladi” [1]. U radikallashuvni tayyor holat sifatida emas, balki shaxsning ekstremistik g‘oya va zo‘ravonlikni qabul qilishiga olib keluvchi jarayon sifatida ta’riflaydi. Bu yerda dialektik jihat shundaki, inson avval norozi bo‘ladi, keyin o‘zini jabrlangan deb his qiladi, undan keyin esa, radikal g‘oyani qabul qiladi, oxirida zo‘ravonlikni qonuniy deb hisoblay boshlaydi. Demak, radikallashuv bir vaqtning o‘zida yuz beradigan hodisa emas, balki inson ongida yig‘ilib boruvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy ziddiyatlarning sifat jihatdan yangi holati, ya’ni ekstremistik dunyoqarashga aylanish jarayoni desak bo‘ladi.

Inson qachon radikallashib boradigan degan savolga Xosroxavar “Inson har doim o‘z shaxsiga yoki o‘zini mansub deb bilagn guruhga nisbatan chuqur adolatsizlikni his qilganida radikallashadi”[2] deb javob beradi. Bu bilan u “adolatsizlikni o‘zi”ni emas, balki “adolatsizlikni his qilish”ni radikallashuvning eng asosiy omili deb baholaydi.

Bizningcha, radikallashuvning antropologik mohiyati insonning obyektiv kamsitilishida emas, balki uning mazkur holatni shaxsiy tahqirlanish sifatida qabul qilishida namoyon bo‘ladi. Ammo bu subyektiv hissiyot ekstremizmga avtomatik ravishda olib kelmaydi. U faqat muayyan mafkuraviy muhit, guruhiiy ta’sir va identiklik inqirozi bilan uyg‘unlashgandagina terrorizm uchun

ijtimoiy-psixologik zamin yaratadi. Shu bois radikallashuvni shaxsiy kechinmalar va ijtimoiy omillarning dialektik birligi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm mojarolarini o'rganuvchi fransuz antropologi Skott Atran terrorchilarni harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida dinni emas, balki birodarlik va o'zaro sadoqat ekanligiga urg'u bergan holda: "Odamlar shunchaki o'ldirishmaydi. Ular bir-birlari uchun o'ldirishadi va o'lishadi... Faqat insonlargina do'stlari va xayoliy yaqinlari, bir-birlari uchun qon to'kishga tayyor birodarliklar yo'lida jon fido qilib, o'lingacha kurashadilar" [3] – deydi. Bu yerda Atran terrorizmni ratsional tanlov yoki diniy fanatizm orqali emas, balki insonning ijtimoiy tabiati orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, terrorchi avvalo muayyan birodarlik jamoasining a'zosiga aylanadi. So'ngra, shaxs o'zini guruh bilan shunchalik identifikatsiya qiladiki, natijada uning shaxsiy manfaatlari jamoat manfaat ichiga singib ketadi. Bu shaxsiy "Men"ning jamoaviy "Biz"ga aylanish jarayonini namoyon qiladi. Bizning fikrimizcha esa, terrorizm antropologiyasida birodarlik fenomeni muhim ahamiyat kasb etsa-da, ammo terrorchining shakllanishini faqat guruhga bo'lgan sadoqat bilangina tushuntirish mumkin emas. Chunki, birodarlik hissi ekstremistik harakatning ijtimoiy mexanizmi bo'lsa, uning ma'naviy va mafkuraviy mazmunini identiklik inqirozi, adolatsizlik hissi va muqaddaslashtirilgan qadriyatlar shakllantiradi.

Skott Atran terrorizmning ijtimoiy-psixologik va antropologik mexanizmlarini muvaffaqiyatli ochib bergan bo'lsa-da, uning yondashuvida global siyosiy ziddiyatlar, sivilizatsion raqobat va geosiyosiy omillarning ta'siri ikkinchi darajaga tushib qolgan. Holbuki, zamonaviy terrorizm faqat birodarlik va muqaddas qadriyatlar mahsuli emas, balki globallashuv sharoitida shakllanayotgan ijtimoiy, madaniy va siyosiy ziddiyatlarning ham antropologik ifodasidir.

Terrorizm va siyosiy zo'ravonlikni tadqiq etish sohasida yetakchilardan biri bo'lgan Marta Krenshou: "Terrorizm sabablarini tushuntirish uchun tahlilning o'zaro bog'liq uch bosqichini ko'rib chiqish zarur: ijtimoiy sharoitlar, guruh qarorlari va shaxsiy moyilliklar" [4] - degan fikrni olg'a suradi. Bu bilan u terrorizmni bir omilli hodisa sifatida emas, balki ko'p omilli ijtimoiy fenomen sifatida talqin qiladi. Krenshou terrorizmni faqat iqtisodiy qashshoqlik, siyosiy zulm yoki psixologik muammolar bilan tushuntirishga qarshi chiqadi. Bizning fikrimizcha, Krenshou terrorizmni ko'p omilli tabiatini to'g'ri ko'rsatadi. Biroq, u terrorizmning antropologik mohiyatini to'g'ri anglash uchun uch darajaga yana bir muhim omilni, ya'ni insonning ma'naviy-ekzistensial holatini ham qo'shishi lozim. Chunki, ayrim hollarda shaxsni radikallashuvga yetaklovchi asosiy sabab ijtimoiy sharoit emas, balki hayot ma'nosini yo'qotish, identiklik inqirozi va ma'naviy bo'shliq bo'lishi mumkin.

To'g'ri, Krenshou terrorizmni siyosiy, ijtimoiy, tashkiliy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida juda aniq tushuntirib bergan. Biroq, uning konsepsiyasida insonning ekzistensial izlanishlari, hayotdan ma'no izlash ehtiyoj va ma'naviy transformatsiya kabi antropologik omillar yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois, terrorizmni terrorizmni to'liq tushunish uchun ijtimoiy-siyosiy tahlilni antropologik va ijtimoiy-falsafiy tahlil bilan boyitish zarur. Shuningdek, terrorizmni tushunish uchun tashqi omillar bilan bir qatorda inson ongida kechadigan qadriyatlar transformatsiyasini ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm bo'yicha mutaxassis, irlandiyalik olim Luiza Richardson: "Terrorchilar aqldan ozgan yoki axloqsiz emas, aksincha, o'zlari belgilagan chegaralar doirasida maqsadga erishishga oqilona intiladilar. Terrorizm sabablarini qashshoqlik yoki mahrumlikning obyektiv sharoitlaridan yoxud hukmronlikka shafqatsiz intilishdan emas, balki norozi shaxs, uni qo'llab-quvvatlovchi jamoa va buni oqlovchi mafkuraning o'zaro qo'shilishidan iborat halokatli birikmadan izlash lozim" [5] – deydi. Shu nuqtai nazardan terrorizm alohida bir omilning emas, balki shaxs, jamoa va g'oyaning murakkab birligi mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning terrorchilarni "aqldan ozgan" yoki "axloqsiz" shaxslar emas, balki muayyan maqsadlarga erishishga intilayotgan ratsional subyektlar sifatida baholashi terrorizmni patologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq ongli harakat sifatida tushunish imkonini beradi.

Dialektik nuqtai nazardan mazkur fikr terrorizmning shakllanishida yakka shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ochib beradi. Chunki norozilikning o'zi terrorizmni yuzaga keltirmaydi, balki u muayyan guruh tomonidan qo'llab-quvvatlanib, mafkuraviy jihatdan oqlangandagina radikallashuv jarayoni chuqurlashadi. Natijada, shaxsiy norozilik jamoaviy identiklikka, jamoaviy identiklik esa ekstremistik harakatga aylanadi. Bu esa, terrorizmning subyektiv va obyektiv omillar birligida shakllanuvchi antropologik fenomen ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, Luiza Richardson terrorizmning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini muvaffaqiyatli ochib bergan bo'lsa-da, uning yondashuvida insonning ichki ma'naviy transformatsiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Zero, norozi shaxsning terrorchiga aylanishi faqat jamoa va mafkura ta'siri bilan emas, balki uning o'zligini anglash jarayoni, identiklik inqirozi, adolatsizlikni subyektiv qabul qilishi va hayot ma'nosini izlashi bilan ham bog'liqdir. Shu sababli terrorizmni faqat siyosiy yoki ijtimoiy harakat sifatida emas, balki inson ongida kechadigan ma'naviy, qadriyatli va antropologik transformatsiyaning mahsuli sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu jihat terrorizmning tashqi ko'rinishini emas, balki uning inson tabiati va ijtimoiy voqelik bilan bog'liq ichki mantig'ini anglash imkonini beradi.

Yuqoridagi yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, radikallashuv va terrorizmni biror-bir omil bilan izohlab bo'lmaydi. Farhod Xosroxovar radikallashuvning subyektiv asoslarini, Skott

Atran terrorizmida guruhiy mansublik va birodarlik fenomenining ahamiyatini, Marta Krenshou terrorizmning ko'p omilli tabiatini, Luiza Richardson esa shaxs, jamoa va mafkura o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishga harakat qilgan. Mazkur yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ular terrorizmni faqat siyosiy yoki harbiy hodisa sifatida emas, balki inson va jamiyat munosabatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy fenomen sifatida talqin qiladi.

Biroq mazkur nazariyalarning har biri terrorizmning muayyan jihatini yoritadi, xolos. Terrorizmning antropologik mohiyatini anglash uchun shaxsning subyektiv kechinmalari, ijtimoiy muhit, guruhiy identiklik, ma'naviy qadriyatlar va global ijtimoiy jarayonlarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, radikallashuv insonning o'zligi, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rni haqidagi tasavvurlari o'zgarishi bilan kechuvchi antropologik transformatsiya jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Terrorizm esa mazkur transformatsiyaning eng keskin va zo'ravon shakli hisoblanadi.

Xulosa. Radikallashuv bir vaqtning o'zida yuz beradigan holat emas, balki inson ongida ijtimoiy, psixologik, madaniy va ma'naviy ziddiyatlarning asta-sekin yig'ilib borishi natijasida shakllanuvchi jarayondir. Ushbu jarayon davomida shaxs o'zini jabrlangan subyekt sifatida anglaydi, muayyan guruh bilan identifikatsiyalashadi va oxir-oqibat zo'ravonlikni adolatni qaror toptirish vositasi sifatida qabul qila boshlaydi. Terrorizmning shakllanishida adolatsizlik hissi, identiklik inqirozi, guruhiy mansublik ehtiyoji, mafkuraviy ta'sir va ma'naviy bo'shliq muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, terrorizmni faqat iqtisodiy, siyosiy yoki diniy omillar bilan tushuntirish uning haqiqiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Terrorist shaxsi obyektiv voqelik va uning subyektiv talqini o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mahsuli sifatida shakllanadi.

Bizning fikrimizcha, terrorizm antropologiyasining markazida insonning o'zligini anglash muammosi turadi. Terroristik faoliyat ko'p hollarda insonning ma'no izlashi, o'z hayotiga qadriyat berishga intilishi va muayyan jamoa manfaatlarini bilan o'zini ayniylashtirishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli terrorizmga qarshi kurashishda faqat xavfsizlik choralarini kuchaytirish emas, balki insonning ma'naviy dunyosi, identikligi va ijtimoiy integratsiyasi bilan bog'liq muammolarini ham bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, radikallashuv va terrorizm zamonaviy jamiyatda inson, jamiyat va qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning antropologik ifodasi bo'lib, ularni tushunish uchun ijtimoiy-falsafiy va antropologik yondashuvlarning integratsiyasi zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Farhad Khosrokhavar. Radicalisation. / – Paris: Éditions de la Maison des sciences de l'homme, 2014. – P. 7.

2. Farhad Khosrokhavar. Radicalisation. / – Paris: Éditions de la Maison des sciences de l’homme, 2014. – P. 26.
3. Atran S. Conversation with the enemy: faith, brotherhood, and (destruction) of terrorists. New York: Harper Collins, 2010. – P. xi.
4. Martha Crenshaw. Explaining terrorism: causes, processes, and consequences. / London ; New York : Routledge, 2011. – P. x.
5. Louise Richardson. What Terrorists Want: Understanding the Enemy, Containing the Threat. / – New York: Random House, 2006. - P. xxii.